



UDK: 091.127.327

Sanjar JAYLOVOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi
E-mail: sanjar.jaylovov@gmail.com

DSc D.Uralov taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING MUHIM USTIVOR YO'NALISHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining ustivor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Yoshlar siyosatining asosiy maqsadi yosh avlodni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdir. Maqolada davlat dasturlari, qonunchilik, jamiyatdagi yoshlarning roli va istiqboldagi yo'nalishlar batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, yoshlar siyosatining samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar siyosati, davlat dasturlari, ijtimoiy rivojlanish, ma'naviy tarbiya, sog'lom turmush tarzi.

ВАЖНЕЙШИЕ ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЁЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются приоритетные направления государственной политики в отношении молодежи в Республике Узбекистан. Основная цель молодежной политики – поддержка молодого поколения в социальном, экономическом и культурном аспектах, формирование патриотизма, духовно-нравственного развития и здорового образа жизни. В статье подробно рассматриваются государственные программы, законодательство, роль молодежи в обществе и перспективные направления. Также предложены практические рекомендации по повышению эффективности молодежной политики.

Ключевые слова: Молодежная политика, государственные программы, социальное развитие, духовное воспитание, здоровый образ жизни.

PRIORITY DIRECTIONS OF STATE POLICY REGARDING YOUTH IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the priority directions of youth policy in the Republic of Uzbekistan. The main goal of youth policy is to support the younger generation socially, economically, and culturally, fostering patriotism, moral and spiritual development, and a healthy lifestyle. The article provides a detailed review of state programs, legislation, the role of youth in society, and prospective directions. Practical recommendations are also offered to enhance the effectiveness of youth policy.

Key words: Youth policy, state programs, social development, moral education, healthy lifestyle.

Kirish. Davlatimiz mustaqillikka erishgach, birinchi navbatda yoshlar siyosati masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiqish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Yoshlarga oid davlat siyosati – bu davlat tomonidan yosh avlodning intellektual, ma'naviy, huquqiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik yo'nalishdir.

Bu hal qilinishi lozim hamda kechiktirib bo'lmaydigan darajadagi juda muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlarimizni bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq yangi ijtimoiy munosabatlarga ma'naviy va ruhiy jihatdan tayyorlash, ularning yangicha iqtisodiy sharoitlarga ortiqcha qiyinchiliklarsiz moslashishi uchun zarur sharoitlar yaratish lozim. Yoshlar siyosatining davlat miqyosida shakllanishi respublikada tub huquqiy g'oyaga aylanishi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bir necha bor ta'kidlandi. Uning zaruriyati shundan iboratki, bozor munosabatlarining tubdan o'zgarishi yoshlarimiz orasida mehnat resurslarining qaytadan bo'linishi va kadrlar taqsimotini keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning «Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» asarida mamlakatning demokratik qadriyatlar asosida barqaror rivojlanishini ta'kidlanadi. Muallif O'zbekistonning ijtimoiy,

iqtisodiy va siyosiy sohalarida erishgan yutuqlari va kelajakdagi ustivor yo'nalishlarini ochiq bayon qiladi. Ushbu manba mamlakatning har bir fuqarosi, xususan yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, demokratik institutlarni mustahkamlash va farovon jamiyatni qurish yo'lidagi strategik vazifalarni yoritadi [2].

Shuningdek, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, qonunchilikni takomillashtirish va yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishga oid aniq vazifalar belgilangan. Bu manba davlat siyosatining strategik yo'nalishlarini va mamlakatning kelajak rivojlanishidagi ustivor vazifalarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, murojaatnoma davlatning barcha sohalarida, xususan, yoshlar siyosatida erishilishi lozim bo'lgan maqsadlar va natijalarni ko'rsatadi [1].

M.Bekmurodov, Q.Quronboyev va L.Tangriyevlarning «Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari» asari esa amaliy nuqtai nazardan O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish strategiyalarini tahlil qiladi. Mualliflar mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda harakatlar strategiyasining rolini, yangilanish va innovatsiyalarni kiritish zaruratini ko'rsatadi. Ushbu manba yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari

va ularning samaradorligini oshirishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining muhim ustivor yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy-tadqiqotning analiz, sintez, analogik tahlil kabi bir qator metod va usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab iqtisodiy islohotlar jamiyatimizda ijtimoiy adolatparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo'lidano bormoqda. Mustaqillikning ilk yillarida bozor va iqtisodiy erkinlikning asosiy mulkdorlar qatlami hali ozchilikni tashkil etar edi va ular orasida yoshlar kam edi. Bunday holatga quyidagi asoslar jiddiy sabab bo'la olishi mumkin. Yoshlarimizga o'tmishdagi tuzumdan ijtimoiy boqimandachilik kabi illatlar meros bo'lib qolgan. 90-yillarda qishloq xo'jaligida 15 dan 29 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 37 foizi ishga jalb etilmagan edi. Kasbga yo'naltirishning sustligi ham yana bir muammoni keltirib chiqargan. O'sha yillardagi tadqiqotlardan ham ma'lum bo'ladiki, balog'at yoshiga yetmagan va birinchi bor mehnat sohasiga qadam qo'ygan yoshlardan 60 foizi kasb va hunar o'rganmaganligi sababli boshqa sohalarida ishlashga majbur edilar.

Buning oqibatida yoshlar o'rtasida siyosiy, fuqarolik, huquqiy sohalarida loqaydlik kabi salbiy illatlar paydo bo'ldi. Sotsiolog olimlar ko'pchilik yoshlarning siyosatga, mamlakatimizda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarga qiziqishi keskin kamayib ketganligini qayd etishgan. Bundan tashqari, yoshlar iqtisod, siyosat, ijtimoiy hayotda yashash uchun moslashish holatlari ham uchraydi. Bunday vaziyatlardan unumli foydalanishga harakat qilgan ayrim "muxolif" kuchlar yoshlarni o'z tarafiga og'dirib olishga urinadilar.

Hukumatimiz bunday kamchiliklarni bartaraf etishni birinchi darajali ishlardan deb bilib, bu sohada qator choratadbirlar ishlab chiqa boshladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham bu masalaning juda dolzarbligi hamda bu masalaga alohida e'tibor berilayotganiga to'xtalib, "Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda. El-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda"[1], – degan edi. Shundan kelib chiqib, mustaqillik yillarida yoshlarga oid davlat siyosati natijasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar va natijalarni batafsil, xolisona yoritib berish juda dolzarbdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi [2].

Prezident Shavkat Mirziyoyev bevosita tashabbusi va rahbarligida 2017-yil 7-fevralda PF-4947-sonli qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilgan "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalish bo'yicha harakatlar strategiyasi"[4] ham yoshlar hayotida taraqqiyotning yangi davrini boshlab berdi.

Harakatlar strategiyasi aholini elektr, tabiiy gaz, toza ichimlik suvi kabi eng zarur ne'matlar bilan ta'minlashni, shuningdek, arzon uy-joylar qurishni, odamlar uchun munosib hayot tarzini yuzaga keltirishni aniq rejalashtirib, uni real vaqt rejimida amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqqani bilan ahamiyatlidir. Harakatlar strategiyasining to'liq amalga oshirilishi natijasida har bir oila uy-joy, elektr energiyasi, tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi [5].

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida hamda bu borada keng jamoatchilik, avvalo, yoshlar vakillarining taklif va mulohazalarini e'tiborga olgan holda O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan IV qurultoyi

qaroriga muvofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30-iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni", deb e'lon qilindi. Shu bilan birga yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

2017-yil 5-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106 sonli farmoni qabul qilindi [6].

Farmondan ko'zlangan maqsad, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasidagi faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish, ularga g'oyaviy-uslubiy yordam ko'rsatishni tashkil etish, yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish maqsadida tizimli o'rganish va tahlillar asosida sohaga oid qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va joriy etishdan iborat.

Yoshlar jamiyatimizdagi eng qudratli kuch ekanligini va bu kuchdan jamiyat taraqqiyoti yo'lida unumli foydalanish haqidagina emas, balki uning kelajagi haqida o'ylash, yoshlarimizning zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lib kamol topishlari haqida g'amxo'rlik qilish nechog'lik muhim ekanligini so'zsiz bugun har birimiz yaxshi anlaymiz. O'zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda yoshlarni ijtimoiy jihatdan himoyalashga e'tibor qaratish hozirgi kunning muhim talabidir. Bu albatta xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos bo'lib, yoshlarda vatan va jamiyat, shu yurt, shu xalq, shu zamin uchun fidoiy bo'lish singari yangi olijanob g'oyani shakllantirishdek dolzarb vazifani amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ham ko'pgina ishlar bajarildi.

Arzon uy-joylar barpo etish mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarning insonparvarligini ko'rsatadi. Uy-joylar arzon narxlarda qurilsa, uni sotib oluvchilar soni ko'payadi. Eng muhimi, bu birinchi galda aholining uy-joyga o'ta muhtoj qatlamining manfaatlarini o'ylagan holda yo'lga qo'yildi. 2016-yilda 10 millionga yaqin bolalar tibbiy ko'rikdan o'tib sog'lomlashtirildi. Jumladan respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida eshitish bo'yicha nuqsoni bo'lgan 350 dan ortiq bolada koxlear implantatsiya operatsiyalari amalga oshirildi. Buning uchun 21 milliard so'm sarflandi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar masalasida amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib, "Joriy yilda olib borgan islohotlarimizning eng muhim natijalaridan biri – bu, shubhasiz, mamlakatimizda bolalar mehnati va majburiy mehnatga butunlay chek qo'yilgani bo'ldi. Bunday ijobiy o'zgarishlar Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa tuzilmalar tomonidan e'tirof etilgani e'tiborga loyiq, albatta" [9], degan so'zlari ham yurtimizda yoshlarga va ularning ijtimoiy himoyasiga nechog'lik ahamiyat berilayotganligining yorqin isbotidir.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi o'rtasida 2017-2019-yillar uchun tuzilgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid bosh kelishuvga, shuningdek, uning

asosidagi tarmoq va hududiy kelishuvlarga yoshlar manfaatini ta'minlashga oid yangi bo'lim va bandlar kiritildi.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'rtasida anglashuv memorandumini imzolandi. Unga ko'ra, davlatimiz rahbarining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi ishlar belgilab olindi. Kasaba uyushmalari federatsiyasining yoshlar bilan ishlash tuzilmasini takomillashtirish taklifi ma'qullanib, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining yoshlar birlashmasi tashkil etildi. Yoshlar birlashmasi raisiga O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi raisining yoshlar bilan ishlash masalalari bo'yicha maslahatchisi maqomi berildi [7].

Respublikamizda yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi yosh avlodga munosabatlarni ham o'zgartirishni taqozo etmoqda. Chunki yosh avlodning shakllanib, voyaga yetishidan kutilgan maqsad, vazifalarning o'zi ham, yoshlar maqomining ijtimoiy-huquqiy ta'rifi ham, yangi, erkin, adolatli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda yoshlarning o'rni va ishtiroki ham bugun o'zgachadir.

Aholining eng himoyasiz va muhtoj qatlamlarini o'z vaqtida himoya qilish boshlangan o'zgarish va yuksalish jarayonini orqaga qaytishiga yo'l bermaydigan ijtimoiy tayanchdir. Shu munosabatda yoshlar siyosatining shakllanishida yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning zarurati

o'sib bormoqda va ijtimoiy himoya yangi yoshlar siyosatida yetakchi o'ringa chiqmoqda [5].

"Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunda kollej bitiruvchilari uchun maqbul keladigan ishlarning mezonlari aniqlashtirilib, ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish to'g'risida alohida modda kiritildi va bu borada ish beruvchilarning mas'uliyati belgilandi. Ushbu o'zgartirishlar yoshlarni ish bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyat kengashi hamda viloyat prokuraturasi va O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi viloyat bo'linmasi hamkorligida tashkil etilgan mehnat yarmarkasida o'nlab yoshlar o'z yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish uchun yo'llanmaga ega bo'lishdi. 103 nafar fuqaro muqim ish bilan ta'minlandi [5]. O'tgan yil davomida 79 marotaba mehnat yarmarkasi o'tkazildi va unda 1 ming 987 nafar yosh ish bilan ta'minlandi. [6].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida mahallalarda 10 mingdan ortiq sport to'garaklari, kutubxonalar va yoshlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ayniqsa so'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yangi sifat bosqichiga chiqdi. Davlat tomonidan ko'rilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida yoshlarning jamiyatdagi o'rni kuchayib, ularning bilim, salohiyat va tashabbuslari amaliy natijalar bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz kelajagiga mustahkam zamin yaratmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasidan. Xalq so'zi. 2017-yil 27-dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 20 b.
5. Bekmurodov M., Quronboyev Q., Tangriyev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017.
6. Surxon tongi. 2018-yil 3-fevraldagi 2873-soni.
7. "Ijtimoiy hayot" jurnali. 2021-yil 14-apreldagi 1952-soni.